



Times Higher Education
Impact Rankings



WORLD
UNIVERSITY
RANKINGS
ASIA 2025



BUXORO
DAVLAT
1930 UNIVERSITETI

“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”

mavzusidagi xalqaro
ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

I

9-10-sentabr
2025-yil

Buxoro - 2025



 @buxdu_uz

 @buxdu1

 @buxdu1

 www.buxdu.uz

Tel.: (65) 221-29-14
Faks: (65) 221-27-07

E-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz
Manzil: Buxoro shahar, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY
MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

**“РОЛЬ БУХАРЫ В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ: БОГАТОЕ
НАСЛЕДИЕ, УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ, СВЕТЛОЕ
БУДУЩЕЕ”**

Международная научно-практическая конференция

**“BUKHARA'S PLACE IN WORLD CIVILIZATION: RICH
HERITAGE, SUSTAINABLE DEVELOPMENT, BRIGHT
FUTURE”**

International Scientific and Practical Conference

Buxoro shahri, 9-10-sentabr, 2025-yil

Ilmiy-amaliy anjuman jahon sivilizatsiyasida Buxoroning tarixiy-madaniy va ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur tadqiq etish, zamonaviy oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish orqali Buxoroning boy merosi bilan kelajak taraqqiyotini uyg'unlashtirishni ilmiy muhokama maydoniga aylantirishni maqsadida o'tkaziladi.

Ushbu to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Buxoro va Buxoro davlat universitetining tarixi hamda turli soha ilmiy yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bilan qiziquvchilar, izlanuvchilar, magistrantlar va talaba-yoshlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

O.X.Xamidov, Buxoro davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Tahrir hay'ati va a'zolari :

K.A.Samiyev	– Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor
D.Sh.Yavmutov	– Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor
O'U. Rashidov	– Moliya - iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
A.T.Jurayev	– Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, i.f.n, dotsent
R.G'. Jumayev	– O'quv ishlari bo'yicha prorektor, s.f.f.d., professor
O.S.Qahhorov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, i.f.d, professor
G.T. Zaripov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, t.f.n., professor
N.I. Gaybullayeva	– BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, f.f.d., professor
N.Z. Sayfullayeva	– Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
M.Sh. Shirinova	– Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent
A.A. Amonov	– Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, s.f.f.d., dotsent
Z.S. Nurov	– Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, i.f.f.d. dotsent
B.I. Adizov	– Rektor ijro apparati boshlig'i, i.f.f.d., dotsent
M.Z. Husenov	– Axborot texnologiyalari markazi direktori, p.f.f.d., dotsent
D.Z. Rajabov	– O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., professor,
A.H. Hamrayev	– BuxDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori
O.O. Jalolov	– Matbuot kotibi

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

N.Z. Sayfullayeva	– Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
M.Sh. Shirinova	– Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent BuxDU tayanch doktorant (PhD) va doktorantlar (DSc) – (filologiya vo'nalishlari)

Mazkur to'plam Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil, 30-avgust 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalar, manba va adabiyotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'ul va javobgardirlar.

Список использованной литературы

- 1.Агзамова Г.А. Некоторые вопросы культурно-духовной жизни городов среднеазиатских ханств // Культура номадов Центральной Азии. Материалы международной конференции. Самарканд, 22-24 ноября 2007г. – Самарканд: изд. МИЦАИ,2008.
2. Бобожонов Ш.У. Бухорони зиёрат қилган инглиз жосуси // Культура номадов Центральной Азии. Материалы международной конференции. Самарканд, 22-24 ноября 2007 – Самарканд: изд. МИЦАИ,2008.
- 3.Вахидов Ш.Х. О системе обучения в медресе Бухары в середине XIX веке //“Ўзбекистон мадрасалар таълим тизими тарихи манбашунослиги” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари. Самарканд – 2024
- 4.Махмудов Т.И. История системы образования эпохи темуридов. Автореферат диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам. – Самарканд: 2022.
- 5.Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. (География) / Введ. пер. Б.Ахмедова. Ташкент:1977,
- 6.Мухаммад Солих. Шайбонийнома / Нашрга тайёрловчи. Э.Шодиев.Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989, С.29
- 7.Об архиве М.Ю.Саиджанова // Общественные науки в Узбекистане.-Ташкент 1993, № 11-12
- 8.Уралов А.С. Гражданское зодчество средневековой Центральной Азии (общественные здания и сооружения) – Ташкент:Ёшлар матбуоти,2021, С.286
- 9.Ўралов А.С., Хожихонов М. Улуғбек яратган маънавият. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,1994. – С.: 90

БУХОРО АМИРЛИГИ МАДРАСА ТАЪЛИМИДА ҚОЗИЛАР ТАЙЁРЛАШ АМАЛИЁТИ

Наимов Исмат

*Бухоро давлат университети
“Археология ва Бухоро тарихи”
кафедраси доценти, т.ф.ф.д., (PhD)
(97) 303-97-37, ismat.naimov@yandex.ru*

Анотация: *Мазкур мақолада Бухоро амирлигида ўрта асрларда бошқа ислом оламидаги давлатларда бўлгани каби, давлат ва жамият манфаатлари учун хизмат қиладиган ҳуқуқ посбонлари, яъни қозиларни мадраса таълими орқали тайёрлаш амалиёти, улар ўзлаштириши лозим бўлган илмлар, фаолиятини бошлашининг ҳуқуқий-расмий асослари, қўйилган талаблар ҳақида илмий далилланган хулосалар таҳлил этилган.*

Таянч тушунчалар: *қози, шариат илми, мадраса таълими, фикҳ, тафсир, ҳадис, қиём ва адолат фалсафаси, мантиқ, иснади шаҳодатнома, ижоза.*

Бухоро амирлигида қозиларни тайёрлашда узоқ вақт талаб этилган. Деярли 18-20 йил давом этган мадраса (олий таълим даргоҳи) таълимидаги ўқув дастурларини (ўқув дастурлари сони 136 та бўлиб, уларнинг ҳар бири алоҳида қўлланмадан иборат бўлган) тўлиқ ва муваффақиятли ўзлаштирган талаба, кейинчалик, ўз ҳаётий тажрибасини ошириш натижасида қози лавозимига тайинланиш имкониятига эга бўлган. Бунинг учун қозиликка даъвогар шахс машаққатли босқичларни босиб ўтилиши лозим эди. Қозилар даставвал, мирза ва мулозим вазифаларида меҳнат қилиб, қозилик маҳкамаси фаолияти билан чуқур танишиши ва фикҳ илмини амалда қўлланилишини билиши керак бўлган.

XX аср бошларига қадар Бухорода мавжуд бўлган мадрасаларнинг ҳар бирида *илми арабий, илми шаръий ва илми ҳакимий* йўналишлари бўйича таълим берилиши йўлга қўйилган бўлиб, айнан қозилар тайёрлайдиган махсус-ихтисослашган мадраса бўлмаган. Бироқ, энг олий тоифадаги нуфузли олий ўқув даргоҳлари ҳисобланган 114 хужрали Мир Араб ва “Кокилаи хурд” гузарида жойлашган 150 хужрадан иборат Қўқалтош мадрасалари қозилар тайёрлашда етакчилик қилишган. Қўқалтош мадрасаси Бухоронинг ўзига хос Фанлар академияси ҳисобланар эди. Бухорода илм ва таълим-тарбия тизимининг энг олий тоифадаги олимлари – охунд, аълам, муфтилар бирор масалани ҳал этишмоқчи бўлса, одатда ушбу мадрасага йиғилишарди[3,310].

Бухоро мадрасалари таълим тизими ўқув дастурларида қозиликка тайёрлаш учун асосан қўйидаги фанлар ўзлаштирилиши лозим эди:

1. Фикҳ (Ислом ҳуқуқи) – қозиларнинг асосий фани бўлиб, улар Ислом қонунлари, қозилик қоидалари ва ҳуқуқий қарашларни ўрганар эдилар.

2. Тафсири – Қуръоннинг маъноларини тушуниш ва ислом қонунларини шу маъноларга асослаб чиқариш учун зарур эди.

3. Ҳадис – Пайғамбар Муҳаммад(с.а.в)нинг сўзлари ва амалларини ўрганиш, чунки ҳадислар фикҳ қоидаларини шакллантиришда асосий манба ҳисобланади.

4. Араб тили – Қуръон ва ҳадисларни тўғри тушуниш учун араб тилини яхши билиш талаб қилинган.

5. Қиём ва адолат фалсафаси – қозилар адолатни таъминлаш ва маънавий-ахлоқий жиҳатдан тўғри қарор чиқариш учун шу фанларни ҳам ўрганар эдилар. Бундай фанларда адолат ҳақидаги таълимотлар, инсоннинг маънавий-ахлоқий вазифалари ва қозилик ҳукмларининг одилона бўлишига оид қоидалар ўрганилар эди.

6. Мантиқ – Фикр юритиш ва далилларни тўғри баҳолаш учун зарур эди.

Шу билан бирга, баъзи қозилар тарих, фикҳ усуллари ва бошқа исломий илмлардан ҳам хабардор бўлганлар. Умуман олганда, қозилар кенг қўламли исломий билимларга эга бўлишлари талаб этилар эди.

Илми толиблар 18-20 йиллик мадраса таълими даврини муваффақиятли тугатганидан сўнг, одатда уларга расмий ҳужжат - “иснади шаҳодатнома” [“اسناد شهادتنامه”] ёки “ижоза” [“اجازة”] берилар эди.

Иснади шаҳодатнома қозилар ва ислом уламолари орасида муҳим ҳужжат ҳисобланар эди. Агар мазкур атамасини кенгроқ тавсифлайдиган бўлсак, Иснад – бу ҳадис ёки билимнинг манбасидан то уни қабул қилувчигача бўлган ривоят занжири, яъни ким кимдан ўргангани ва билимни кимдан олгани ҳақидаги маълумот ҳисобланади. Шаҳодатнома эса бирор кимсага маълум фан ёки илм соҳасида билимга эга эканлиги ва унга ўша соҳада фаолият юритиш ҳуқуқини берувчи расмий ҳужжатдир. Бу ҳужжат – мадраса битирувчисининг маълум бир фан ёки илм соҳасида билим ва салоҳиятга эга эканлигини тасдиқлайди ва унга ўша фан бўйича таълим бериш ва қозилик ёки адлия фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқини берар эди.

“Иснади шаҳодатнома” кейинчалик кўпроқ “ижоза” атамаси билан ифодаланган ва Бухоро иш юритувида иснади шаҳодатномага нисбатан кўпроқ фойдаланилган. Ижоза арабча – рухсатнома бўлиб, уламолардан ва устозлардан олинган ривоят ёки билим бериш ҳуқуқи тўғрисидаги расмий рухсат эди. Қозилар ҳам ўзлари ўрганган фикҳ, ҳадис ёки бошқа ислом фанлари бўйича ижоза олишган. Шу тарзда, мазкур ҳужжат орқали қозиларнинг билим даражаси ва уларнинг адлия фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқи расмий тасдиқланган. Мадраса ёки илмий мактабда ўрганувчи маълум фанни пухта ўзлаштирганидан сўнг, у ўқитувчиси (устози) томонидан ижоза билан тақдирланар эди. Ижозада одатда иснод (ривоят занжири) ҳам келтирилар эди, бу орқали билимнинг асл манбаси ва унинг ҳақиқийлигини тасдиқлаш мумкин бўлар эди. Шу билан бирга, ижоза билимнинг аниқ ва текширилган манбаларига асосланганлигини таъминлаган. Ижозада одатда унда талабанинг исми, ўрганган фанлари рўйхати, ижоза берилган фанлар ва уни берган устознинг исми кўрсатилган. Устоз таълим олган олимларнинг иснодини ҳам ёзиб қўйган. Ва уни сана, ўз муҳри билан тасдиқлаган. Шундан сўнг ижоза расмий-ҳуқуқий кучга кирган.

Иснади шаҳодатнома ёки ижоза – бу нафақат билимни тасдиқловчи, балки уни давом эттириш ва бошқаларга етказиш ҳуқуқини берувчи муҳим ҳужжат ҳам ҳисобланган. Яъни, унга эғалик қилувчи шахс айни вақтда ҳам қозилик, ҳам мураббийлик фаолияти билан шуғулланиши мумкин бўлган. Шу боис, у шариат илмида у катта аҳамиятга эга бўлган.

Бухоро амирлигида қозиликка даъвогарларга давлатнинг бошқа мансабларга қўйиладиган шартлардан фарқли ўлароқ алоҳида талаблар ва мезонлар қўйилган. Қози бўлиш учун маълум ёш чегараси аниқ белгиланмаган бўлса-да, фақиҳлар ёш ўспиринларни қозиликка муносиб кўрмаган. Уларнинг фикрича, ўспирин йигит шахват сабабидан заифа (аёл-қиз) низоланувчиларга ён бериб қўйиши эҳтимолга яқин бўлган. Шу билан бирга, қози лавозимида мусулмон бўлмаган шахслар, қуллар ва чўрилар, тухматчиликда айбланган шахслар, оғир жиноят содир этганлар, вояга етмаганлар ҳамда аёллар номзод бўла олмаган.

Қози лавозимида даъвогар шахслар қуйидаги талабларга жавоб бериши керак эди:

- мусулмон эркак киши ва насл-насабининг тозаллиги;
- вояга етган озод (бу ўринда бировнинг ҳукми асосида фаолият юритмаган киши назарда тутилган) шахс ёхуд муомалага лаёқатли ҳамда ақли расо ва фаҳмли бўлиш;

- жисмоний нуксонлардан холи бўлган ҳар томонлама етук ҳамда никоҳ қурган шахс;
- араб, форс тили ва фикҳ илмини мукаммал эгаллаган, шунингдек, маълум бир ҳаётий тажрибага эга бўлиб, миллий қадриятларни яхши билган киши (ҳанафий мазҳаби таълимотига кўра, қозидан “илмул яқийн” ёки “айнул яқийн” мақомидаги илмий даража талаб қилинмаган, бироқ диний унвон бўлиши устунликка эга бўлган);

- шахснинг дахлсизлиги ёки туҳмат билан ҳад (жисмоний жазо) урилмаган киши бўлиши.

Юқоридаги талаблар билан бирга Бухоро амирлигида қозиликка талабгор Қуръони карим кўрсатмаларини, Ҳадиси шарифда келган ҳукмларни билиши ва ҳаётда амалий татбиқ эта олиши, Бухоро ёки Самарқанддаги бирор машҳур мадрасани тугатган бўлиши ҳамда Қуръонда келган 500 та ҳукмдан ва ҳадисларда келтирилган 2000 дан ортиқ ҳукмларни ёддан билиши талаб этилган[5,69].

Бухоро қозикалони ва ҳар бир беклик қозиси шахсан амир томонидан махсус ёрлик билан тайинланиб, бунинг рамзий белгиси сифатида шойи-ипакдан тикилган бир бош “*сарпои*” (бошдан оёқ тўн либос жамланмаса) туҳфа этилган. Одат бўйича қозикалон янги сарпои билан Бухоронинг марказий қўчаларини кесиб ўтиши ва ишга киришадиганлиги муносабати билан ўзини таништириши керак бўлган. Беклик қозилари эса амир вакили орқали жўнатиш билан ёрлик ва сарпоини мамнуният билан қабул қилгач, буни беклик ҳокимига маълум қилиш мақсадида ўнта тўн ва битта от-улов ҳада этиб, амир муборакномасини тақдим этиб, ўз лавозимини бажаришга киришган[9,65].

Бухоро амирлигининг суд ҳокимиятига Қозикалон раҳбарлик қилиб, унинг қўл остида 28 та беклик ва 7 та Бухоро туманлари қозилари бўйсунган. Қози ҳуқуқий, маънавий-маърифий ва диний ишлар учун алоҳида белгиланган масъул шахс сифатида Қозикалон кўрсатмаларини ижро этган ва бошқа маҳаллий раҳбарлардан ўз фаолиятида тўла мустақил бўлиб, бекликлардаги ҳақиқий ҳолат тўғрисида Қозикалонга ёки шахсан амир қўшбегисига ошқора ёхуд махфий маълумот тақдим этиш ваколатига эга бўлган[11].

Бухоро амирлигида қозилар фаолият кўрсатиш йўналишига кўра қуйидаги турларга бўлинган:

1. *Шайх-ул-ислом* – уламолар фаолиятини шариат талаблари асосида тартибга солиб туриш;
2. *Қозикалон* ва унинг қўл остидаги қозилар (фуқарои) – шариат қоидаларини ҳаётга тадбиқ этиш ва унинг устидан қатъий назорат юритиш;
3. *Қози-ўрда* (сипои) – лашкарлар, сипоҳлар ишларини назорат қилиш учун масъул ҳисобланган.

Қозикалон лавозимига аксарият ҳолларда уламолар таркибидан раис лавозимида фаолият юритиб, тажриба орттирган кишилар тайинланган. Қозикалон “*шариат-наноҳ*” унвонига эгалик қилиб, амирликдаги барча қозиларнинг раҳбари саналган ва ўзига ўринбосар – “*ноиб*” ёки “*вакил*” тайинлаши мумкин бўлган[8,30-31].

Қозилар йирик фикҳий уламолар томонидан мукаммал ишлаб чиқилган асрлар давомида амалда бўлган махсус одоб-ахлоқ меъёрларига қатъий риоя этишлари талаб этиларди. Шундай бекиёс манбалардан бири буюк ватандошимиз Бурҳониддин Марғинович (1123-1197)нинг “*Ҳидоя*” асари бўлиб, унда фикҳ илмлари мукаммал тушунтириб берилган. 1178 йили Самарқандда ёзилган “*Ҳидоя*” асари тўрт жуздан иборат, мусулмон мамлакатларида ҳуқуқшунослик бўйича энг асосий қўлланма ҳисобланади. Айнан мазкур асарда шариат аҳкомлари тўғрисидаги маълумотлар билан биргаликда, “*Қозиларнинг мақоми*” деб номланган XX бобида адолат ҳимоячилари – қозиларнинг бурч ва мажбуриятлари, уларга берилган ваколатлар, қўйилган талаблар, ҳукм чиқариш қоидалари каби ниҳоятда муҳим масалалар ўз ифодасини топган.

Уларга кўра, қозиларга ақлни заифлашишига сабаб бўладиган омиллар, яъни қорни оч, чанқоқ ва жаҳли чиққан, ғазабланган маҳалда ҳукм чиқариш мумкин бўлмаган. Агар жавобгар ҳукм чиқариш пайтида дастлаб даъвогар талабига қарши турса-ю, сўнгра кўринмай кетса, қози қарор чиқариш муддатини кечиктириши мумкин эди [2,273]. Чунки, қоидага кўра, қози қарор чиқараётган пайтда даъвогар билан жавобгар ўртасида ҳақиқий баҳс бўлиши керак эди. Шу орқали ҳақиқатни юзага чиқариш мумкин бўлган. Қози маҳкама жараёнида даъвогар ва жавобгарга тенг муносабатда бўлиши, уларнинг манфаатини биридан устун қўймаслиги, томонларнинг бирига жилмаймаслиги, чунки бу ҳаракати билан қайси бир томонга рағбати устун маъносида ифодаланиши мумкинлиги каби хизмат йўриқномалари ҳам “*Ҳидоя*”да келтирилади.

Шу билан бирга, қозилар ўз вазифаларига масъулият билан ёндашмасалар уларга таъсир чоралари ҳам белгиланган. Хусусан, қози бида туриб адолатсиз ҳукм чиқарса, мансабидан бўшатиш билан. Бундай салбий ҳаракатлари билан авлодларининг ҳам келажагига таъсир этган, оқибатда авлодларидан ҳеч бирига қози бўлишга рухсат берилмаган[7,25].

Қозиларнинг мажбуриятларига: фаолият юритаётган шахри ёки вилоятидаги барча фуқаролик ва жиноий ишларни кўриб чиқиш; жамоа ахлоқини назорат қилиш; зарурий ҳолларда кишиларга ва

мулкларга васийлар (мерос ҳукуқи)ни тайинлаш; вақф мулкларини назорат қилиш, жамоат бино ва иншоотларини, кўча, йўл ва майдонларнинг ҳолатини тафтиш қилиш; меросни тақсимлаш ҳамда унга васийларнинг рия қилишини текшириб туриш; оила-никоҳ аҳдномалари ва муаммоларининг тўғри олиб борилишини ҳамда жиноят ва жазо белгилашни бошқариш, миршаблар ва зиндонлар тафтишини юритиш; закот, солиқни йиғиш ва тақсимлаш ишларини назорат қилиш[5,68] ҳамда масжидлар ва бозорларни текшириш, шунингдек, мусулмонларнинг шариатга рия этишлари ва бошқа ижтимоий ҳаётдаги муаммоларни ҳал этиш каби масалалар кирган.

Шариат қозиларни ўз иш фаолиятида ҳолис, адолат ва масъулиятли бўлишга даъватлаган. Хусусан, машҳур ҳадисшунос олим Абу Довуд Сулаймон ҳадисларга таянган ҳолда асослаб беришича: “Муҳаммад Расулуллоҳ (с.а.в.) айтганлар: Қозилар *уч тоифадан* иборатдир. Улардан фақат бир тоифадаги қозилар жаннатга киритилади, ўшалар *ҳақиқатни нозил қилганлар* ва унга мувофиқ ҳукм чиқарганлардир. Бироқ ҳақиқатни ошкор қилган, лекин *ҳукм чиқараётганда унга эътибор бермаган қози* дўзахга киради; томонлар (даъвогар ва жавобгар)нинг ноҳолис даъволарини била туриб инobatга олган ҳолда ҳукм чиқарган ва ишнинг тубига етиб бормаган, *одамлар устидан жоҳиллик билан ҳукм чиқарган қозининг* ҳам жойи дўзахда”[10,118] бўлар экан. Бошқа бир ҳадисда Расулуллоҳ (с.а.в.): “Ким қозиликни талаб қилса ва унга эришиш учун воситачилар қўйса, у ўз ҳолига ташлаб қўйилади. Кимга қозилик мажбур қилинса, Аллоҳ уни тўғрилиқка йўллаб турувчи фариштани нозил қилади” [7,60], дейилади.

Бухоро мадрасаларидаги таълим сифатининг назорати ва ташкилий ишлар тўлиқ Қозикалон зиммасида бўлган. Таълим тизимига доир барча турдаги ҳужжатлар олий ҳукмдор эътиборига Қози ул-қузот орқали тақдим қилинган. Пойтахт Бухоро ва бекликлар қозилари ҳам айнан ушбу вазифани бажарган. Жумладан, Ўзбекистон миллий архиви И-323-жамғармаси йиғма жилдларида сақланилаётган мадрасаларга тегишли вақф ҳужжатларидаги муҳрлар буни тасдиқлайди [12]. Таълим тизимида вақфсиз мадрасалар ҳам бўлган. Уларнинг бошқарувини Қозикалон ва қозилар амирлик томонидан белгиланган тартибда юритиб, “*байт ул-мол*”дан молиялаштирилишини ташкил қилиб турган.

Бухоро амирлиги қўшбеги архивида сақланилаётган ҳужжатларнинг гувоҳлик беришича, мадрасаларнинг етарли илмга эга истеъдодли ва тажрибали охунд-мударрислари вақти-вақти билан саралаб олиниб, туман ҳамда бекликларга қози ва бошқа муҳим мансабларга юборилган[11].

Хулоса қилиб айтганда, Бухоро мадрасалари таълим тизимида қози тайёрлаш амалиёти ўта мураккаб бўлиб, тўлиқ махсус ўқув дастурларини ўзлаштиришни ҳамма битирувчи ҳам уддалаб билмасди. Мадрасаларда талабалар юксак маънавиятли ва юқори касбий билимларга эга бўлгандан сўнг, ижоза гувоҳномаси билан тақдирланар ва шундан сўнг расмий жиҳатдан ўз фаолиятини бошлаш имкониятига эга бўларди. Таъкидлаш жоизки, бундай турдаги ҳужжатлар республикамиз ҳужжатгоҳларида қўлаб сақланиб қолган бўлиб, улар илмий жаҳатдан ўрганишга муҳтож саналади. Умид қиламизки, кейинги излорнишларда қозилик ҳужжатларини чуқур ўрганиш ва илмий жамоатчиликка етказиш имконияти туғилади.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бухоро амирлиги қозихона маҳкамаси тарихи (XVIII аср ўрталари – XX аср бошлари) Матн / лойиҳа раҳбари И. Наимов. Ўзбекистон Республикаси Бош прокурори Ниғматилла Йўлдошев умумий таҳрири остида. – Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2023.
2. Бурхануддин Маргинани. Хидоя / Комментарий мусульманского права. пер. с англ.; под ред. Н.И. Гродекова; отв. ред., авт. предисл., вступ. ст. и науч. комм. проф. А.Х. Саидов. Часть 1. Том II. – Москва: Волтерс Клувер, 2010.
3. Жуманазаров А. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2017.
4. Куч адолатда – Бухоро судлари: Ўтмишда ва бугун. [Матн]: китоб-альбом / А.Хамроев, И.Наимов. – Тошкент: Renaissance nashriyoti, 2024.
5. Мирзаев Н. Қози лавозими ва унинг одоби ҳақида ёзилган асарлар таҳлили // “Infolib”. №2, 2019.
6. Наимов И. Традиции назначения казиев в Бухарском эмирате и обычаи сарпои // Universal Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture. Volume 2, ISSUE 13. 2024. ISSN 2992-8834. – P. 54-62.
7. Судья маънавияти, одоби ва масъулияти [Матн] / нашрга тайёрловчилар Ф.Т.Турсунов, С.Б. Асқарок. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2021.
8. Семенов С. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. – Сталинобод: Нашриёти академияти фанҳои РСФСР Тоҷикистон, 1954.

9. Фридрихъ Н. Бухара / Этнографический очеркъ. – С-Петербургъ: Издательство О.Н. Поповой, 1910.
10. Хадисы пророка (Хадис 56) / Перевод смыслов и комментарии Иман Валерии Пороховой. 5-е издание. – Москва: «Рипол-Классик», 2022. – С.
11. Ўзбекистон МА, И-126-фонд. 1-рўйхат.
12. Ўзбекистон МА, И-323-фонд. 1-рўйхат.

БУХОРОДА НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИ ДАВОМЧИСИ

Мунисхон Гуламова

Бухоро давлат университети

Ислом тарихи ва манбаишунослиги,

фалсафа кафедраси доценти в.б., ф.ф..ф.д.(PhD)

Аннотация: *ушбу мақолада Хожа Муҳаммад Порсо тасаввуфий таълимотини ўрганишининг илмий ва амалий аҳамияти ўз аксини топган*

Таянч сўзлар: тасаввуф, тафаккур, илм, виждон, зикр, ёд этиш, ижтимоий ҳаёт, ахлокий етуклик,

Бухорои Шарифда Хожа Баҳоуддин Нақшбанддан кейин мазкур таълимот назариётчиси ва давомчиси Хожа Муҳаммад Порсо ҳисобланади. Тасаввуфий тафаккур тарихида нақшбандия тариқати назариётчиси Хожа Муҳаммад Порсо ҳақида нуфузли манбаларда маълумотлар ўз аксини топган. Хожа Муҳаммад Порсонинг тўлиқ исми-Муҳаммад бин Муҳаммад бин Маҳмуд ал-Ҳофиз ал-Бухорий факих олим Хисомуддин Юсуф авлодларидан бўлиб, Баҳоуддин Нақшбанднинг ҳамроҳи ва содиқ издоши Ҳофизуддин ал-Кабир, ал-Бухорийнинг неварасидир. У 1345 йилда Бухоро шаҳрининг “Қуйи деҳқон”[28,296] маҳалласида туғилган, ҳижрий 822 (милодий 1420) йилда Мадина шаҳрида вафот этган ва шу шаҳар яқинидаги “Жаннатул Бакеъ” қабристонида дафн қилинган.

Хожа Муҳаммад Порсо илмий меросининг таҳлили ҳамда илмий изланишлар олиб борган олимларнинг хулосаларига таяниб унинг асарларини қуйидагича таснифлаш мумкин:

- I. Ислом илмларига бағишланган (Қуръон, ҳадис, тафсир, калом) асарлар;
- II. Нақшбандия тариқати ва тасаввуф назариясига оид асарлар;
- III. Тарих, география, адабиёт, биография туркумига кирувчи асарлар.
- IV. Таҳқиқ, яъни изланишлар туркумига кирувчи китоблар.

Муҳаммад Порсо йигирмадан ортиқ тасаввуф, ирфон фалсафаси, тасаввуф назарияси ва тариқатлар тарихи, адабиёт, география, тарих фанларига доир муфассал асарлар ёзиб қолдирди. Унинг илмий мероси темурийлар даври маданий юксалишларига муносиб ҳисса бўлиб қўшилган.

Хожа Муҳаммад Порсо тасаввуфда “Порсоия” таълимоти асосчиси ҳисобланади XIV-XV асрлардаги маърифий, маданий, ривожланиш диний-фалсафий таълимотларнинг такомиллашиб, мустаҳкамланиб бориши билан узвий боғлиқ бўлиб, ислом динини, фалсафий, тасаввуфий ғоялар, маърифий таълимотларни ўрганиш ва ўқитишга эътибор қаратилди. Дин аҳллари ва уламоларнинг давлат ишларидаги иштироки учун имконият мавжуд эди. Бу ҳақда Темур тузуқларида дин арбоблари, шайх, саййид, уламолар фаолиятига ўрин ажратилиб, уларнинг давлат ишларидаги иштироки бир неча бор қайд этилган. Темур ва темурийлар зиммасига мўғулларнинг босқинчилиги асоратини тиклаш ҳамда мамлакатда ижтимоий-сиёсий, маданий-маънавий муҳитни соғломлаштириш вазифаси тушади. Мўғулларнинг Мовароуннаҳр ўлкаси ҳудудларида тожу-тахт учун ўзаро курашлари маданий-маънавий ҳаётига салбий таъсир кўрсатганлигини, ўлка маданияти тарихига оид манбалар, илм масканлари, мадраса ва кутубхоналар қаровсиз қолганлигини, қўплаб илм-фан, санъат, адабиёт, вакиллари, уламолар тоифаси, олимлар, меъмор ва мусаввирлар азият чекканлиги, кўпчилик уламолар бошқа юртларга чиқиб кетганликларини, шу чигал вазият сабаб илмга эътибор пасайган.

Мутасаввиф илмий меросини ўрганиш давомида қуйидаги ишлар зарур ҳисобланади. Хожа Муҳаммад Порсо дунёкарашига таъсир кўрсатган (XIV-XV аср) ижтимоий-тарихий, маданий-маънавий муҳит хусусиятларини очиб бериш, мутасаввифнинг инсон тушунчасига оид қарашларининг ўзига хос хусусиятларини фалсафий антропологик моҳиятини ёритиш, инсон табиати, ҳислатлари ва тоифалари ҳақидаги фалсафий-ирфоний ғояларининг тасаввуф фалсафаси ривожига таъсирини асослаш, Хожа Муҳаммад Порсо маънавий меросида тасаввуф антропологияси, инсон камолоти ва диний-ахлоқий ғояларнинг фалсафий жиҳатларини таҳлил этиш, Хожа Муҳаммад

К.А. Хайдаров, Г.А. Курбанов	Кластерный подход в развитии профессиональной компетенции преподавателей высших военных образовательных учреждений	237
Б.М. Хушвактов	Подготовка обучающегося к будущей профессиональной деятельности посредством игрового моделирования в конструктивистской педагогике	240
Э.Э.Саматова, А.В.Козленко, С.У.Рузиева, А.К.Толонова, О.А.Авазов	Автономия вузов и разработка образовательных стандартов: современные вызовы и креативные решения в Республике Киргизстан	245
М.Н. Усманова	Проектирование модельного лекционного занятия темы «Память» на технологической основе	250
Э.С. Эшов	Психология подготовки будущих учителей к инновационной деятельности на основе творческого подхода	258
N.N.Ashrapov	Oliy ta'limda innovatsiyalar orqali talabalarning raqamli texnologiyalar bo'yicha savodxonligini oshirishning amaliy jihatlari	260
N.R. Axmadov	Oliy ta'lim tizimida raqamli innovatsiyalar va ijodiy yondashuvlar asosida ta'lim sifatini oshirishning samarali yo'llari	265
F.F.Ganjiyev	Oliy ta'lim tizimida innovatsiyalar orqali talabalarda tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari	267
G.B. Murodova	Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarni tahlil qilish	272
D.M.Qodirova	Talabalar ijodiy fikrlashini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning o'rni	274
2-SHO'BA. BUXORO: SHARAFLI O'TMISHDAN, BUYUK ISTIQBOL SARI		
Б. С. Сафаралиев, К.Ф. Абдуллаев	Народно-календарные праздники как элемент материальной и духовной культуры таджиков восточной Бухары	279
И.И. Усманходжаев, Н.Т. Хасанова	Диагностика и укрепление минарета Калян в Бухаре: сейсмостойкость и стратегии сохранения в контексте международных стандартов	282
О. Шарипова	Жаҳон цивилизациясида Бухоро фалсафа тарихи мактабининг ўрни	283
Х.Тўраев	Кўхна сарой тарихи ёзма манбаларда	291
A.T.Ochilov	Buxoro davlat universiteti va Rossiya davlat ermitaj muzeyi hamkorlik yo'lida yoxud muzey xodimlarining Buxoro tarixiga doir tadqiqotlari	294
С. Раупов	Бухоро амирлигида махаллий ўзини-ўзи бошқариш органлари	299
К. Р. Рахимов	Бухоро – илмлар академияси ёхуд чинорлар саҳрода ўсмайди	302
N. G. Dilova	Buxoro – ilm-fan va madaniyatning jahonshumul markazi	309
T. I. Rajabov	Buxoro musiqa folklorining umumiy musiqa ta'limi tizimidagi o'rni va jamoa bo'lib kuylashga o'rgatishning o'ziga xos jihatlari	312
B. I. Mustafayev	“Buxoro shashmaqomi” yosh avlodni ma'naviy- ma'rifiy rivojlantirishda muhim omil sifatida	314
L. X. Xaydarova	Buxoro yoshlarining intellektual va kreativ salohiyati: kelajakni bunyod etishdagi o'rinlari	317
A.S.Avazov, O.M.Salimov	O'zbekiston arxitektura yodgorliklarining kadastr hujjatlari yaratish muammolari va usullari	320
R. A. Axtamov, B.R. Axtamov, N.B. Rustamov	Buxoro davlat universiteti geliotexnika maktabining qisqacha tarixi	323
F.Temirov	Akademik Sadridin Ayniyning Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) davridagi ilmiy-ijodiy faoliyati	328
B.B.Boltayev	Buxoro davlat universiteti o'tmishini tarixga muhrlagan muzey	331
D.T.Ismatova	Buxoro iqtisodiy transformatsiyasi: meros, modernizatsiya, barqarorlik	333
X.R.Nafiddinova.	Qonunchilikda milliy madaniy markazlar faoliyatiga ahamiyat	336
F.X. Utayeva	Buxoro zardo'zlik fabrikasi tarixi	337
А.Абдукадиров, М.Абдукадыров	Исторический контекст: бухарский восточный рубеж и российская экономическая экспансия	341

Ф.Х. Бобожонова	Бухоро амирлигидаги олий таълим тарихига бир назар	347
К.Ганиев.	О роли медресе Бухары в духовно-культурной жизни общества (XVI–первая половина XIX веков)	348
И.Наимов	Бухоро амирлиги мадраса таълимида қозилар тайёрлаш амалиёти	353
М.Гуламова	Бухорода нақшбандия тариқати давомчиси	357
З.А. Мурадова	Из истории изучения музыкального наследия Бухары в XX веке	359
Ш.Бобожонов	Бухоро давлат университетининг шаклланиш ва ривожланиш тарихи	363
И.Х.Шоев	Особенности правовой системы Бухарского эмирата	366
З.И. Туксанова	Медресе Мирзы Улугбека в Бухаре	369
И.С.Бўриев	Сомонийлар сулоласи чоғида бухоролик астроном ва математиклар	371
Z.B. Yakubov	Buxoro shashmaqomining mo'g'ulcha sho'balariga doir qarashlar (A.Boboxonov nota to'plami misolida)	375
M. M. Safayev	Buxoroda gilamlar savdosi va kolleksionerlik faoliyati	378
M.F.Norova	Ma'naviy meros va kamolot: Sayfiddin Boxarziy qarashlari misolida	382
B.B. G'aybulloyev	Buxoro teatrining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari	386
O. X. Allayarov	Zarafshon daryosi suv taqsimoti (Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi davrida)	390
M.K. Beshimov	Munzimning matbuotchilik faoliyati	394
N.F. Davronova	Qadimiy O'rta Osiyo me'morchiligi va zamonaviy zilzilaga chidamli qurilish tamoyillari uzviyligi	396
S.Z. Jabborova	Jahon sivilizatsiyasida Buxoroning o'rni	399
Z.Y. Jo'rayeva	Jahon sivilizatsiyasida Buxoroning o'rni: boy meros, barqaror rivojlanish, yorqin kelajak	104
Ҳ.Б. Ҳайдарова	Ислом оламида фикҳ илмини ривожига Абу Ҳафс Кабир Бухорийнинг ўрни	403
M.P. Khonjonova	Bukhara: from a glorious past to a great future	406
G.B. To'raeva	XIX–XX asrlarda Buxoro shahri aholisi tarkibida turkiy tilli guruhlarining shakllanishi va etnografik xususiyatlari: O.A.Suxareva tadqiqotlari asosida	408
M. B. Malikova, M. D. Ibragimova	Madaniy meros va zamonaviy ta'lim integratsiyasi: Buxoro misolida	414
T.B.Abdimo'minov	Sherobod bekligining boshqaruv tizimi va ma'muriy- hududiy bo'linishi	416
Y.A. Olimova	Buxoro: sharaflı o'tmishdan buyuk istiqbol sari	422
Z.A.Ortiqova	The crossroads of traditions: understanding Bukhara's diversity	424
B.M.Mutallibjonov	Buxoro hunarmandchiligining zamonaviy rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolar va ularning yechimlari	426
D.Z.Isrofilova	Buxoroning Usmoniylar imperiyasi bilan elchilik munosabatlari	431
3-SHO'BA. FIZIKA, MATEMATIKA, QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING DOLZARB MUAMMOLARI		
D. R. Djurayev, Z. R. Ramazonova	Vismut asosli kuprat o'ta o'tkazgichlar va ularning kritik parametrlari	434
I.Akramov, D. Qurbonova	Enhancing the spectral deferred correction method using ai-based initial guesses	436
D. R. Djurayev., A. A. Ahadov	Kazimir energiyasi yondashuvi asosida turli kislorod kontentli HgBa ₂ CuO ₄ (4+δ) (Hg-1201) o'ta o'tkazgich kritik haroratini hisoblash modeli	440
N. N. Boltayev, M. M. Mansurov	Veleton TM misolida energiya tejoyvchi qo'shimchalarning chaqioqtosh-mastikali asfaltbeton xususiyatlariga ta'siri	442
D. R. Djurayev, A. A. Ahadov	Optimal legirlangan Hg-1201 o'ta o'tkazgich zaryad tashuvchilar effektiv massasining bir o'qli bosim ostida o'zgarishi	445
M. I. Elboyeva	CaMoO ₄ va PbMoO ₄ kristallarining strukturaviy, spektroskopik va akustooptik xossalari	447
M. O'.O'ktamov, E. O'. Fayzullayeva	Qayta tiklanadigan energiya manbalarining optimallashtirilgan taqsimoti uchun matematik modellashirish	449
D. H. Fayziyeva	Talabalar media kompetentligini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanish metodikasi	453